

INGLIZ TILI FANINI O`QITISHDA YANGI PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALAR VA INTERFAOL METODLARNING AHAMIYATI

Raximova Maftuna Umirbek qizi

Xiva shahar 10-son maktab o`qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada ingliz tili fanini o`qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati xususida so`z yuritilar ekan, fanni o`zlashtirish biroz murakkabligini hisobga olgan holda o`quvchining barcha imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek tilni rivojlantirishda yangi metodlardan misollar keltirilib, uning ahamiyati ochib beriladi .

**Kalit so`zlar:** Kalit so`zlar: Ingliz tili, metodika, fan, uslub, dars, o`quvchi, pedagog.

Аннотация: В статье рассматривается важность использования новых педагогических технологий в обучении английскому языку, учитывая сложную природу освоения предмета, анализируются все возможности ученика. Приводятся примеры новых методов развития языка и раскрывается их значимость.

Ключевые слова: английский язык, методика, предмет, стиль, урок, ученик, учитель.

Abstract:The article discusses the role of new pedagogical technologies, modern interactive methods and innovative approaches in English language teaching. In particular, the impact of new generation methods that serve the development of communicative competence - "Flipped classroom", "Design Thinking", "CLIL", "Gamification" and "Project-based learning" - on the educational process is analyzed on a scientific basis.

Keywords: modern technology, interactive method, innovative education, communicative competence, linguistic didactics.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ni amalga oshirishda yangi pedagogik texnologiyalar joriy etishga alohida e'tibor qaratilgan. Milliy dasturning 3- bosqichida

ta'lim muassasalari "Ilg'or pedagogic texnologiyalar bilan to'liq ta'minlanadi" deyilgan. Ta'lim jarayonida ilg'or pedagogic texnologiyalar talabalarni mustaqil bilim olishga, atroflicha fikrlashga, ijodiy faol ishlashga odatlantiradi. Bunday yutuqlarga erishishda interaktiv metodlardan o'rinli va unumli foydalanish o'zining ijobiy samarasini bermoqda. Bugungi globallashuv davrida xorijiy tillarni, xususan, ingliz tilini mukammal o'rganish zaruriy ehtiyojga aylandi. Chet tillarini samarali o'qitish, ayniqsa, ta'lim jarayonida zamonaviy yondashuvlarni qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, yangi pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar ingliz tili darslarini qiziqarli va samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. "Chet tillari bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarga erishgan maktablar uchun Prezident sovrini ta'sis etiladi" — Shavkat Mirziyoyev. Darhaqiqat, chet tilini rivojlantirish orqali dunyo tan olgan davlatlar standartiga javob bera oladigan maktab dars, darslik yaratish biz pedagogklarning vazifamizdir. Quvonarlisi, ingliz tilida biyron so'zlasha oladigan lar maktabning birinchi sinfidayoq topilayotgani, tizimda ingliz tili mutaxassislarning ko'p mehnati singayotganidan dalolatdir. Ayniqsa, chet tilida xalqaro darajalarga erishayotgan o'quvchilar safi kundan kunga ko'payib bormoqda. Shuningdek, milliy oliygoharimizdan tashqari dunyoning top 1000 talikka kirgan universitetlarga bir o'quvchining yettitadan ortig'iga talaba bo'layotgani ham bizni quvontiradi. Darvoqe, fanni o'zlashtirish biroz murakkab jarayon. O'zga tilni o'z tilidek mukammal o'zlashtirishda esa pedagogning mahoratiga bog'liq. Bunda yangi pedagogik uslublardan foydalanish ham muhim ham samaralidir. An'anaviy darsdan ko'ra o'quvchi yangi texnologiyalardan foydalanib o'tilgan darsda o'zlashtirish ko'rsatkichi yuqori bo'ladi. Biz o'quvchilarga ingliz tilini o'rgatishda quyidagi interaktiv metodlardan ya'ni "Miya hujumi", "Golereya bo'ylab sayohat", "Aylana stol", "Musobaqa", "So'z oyini", "Muammoni hal qilish" kabilardan foydalanib mashg'ulolar samaradorligiga erishmoqdamiz.

Pedagogik texnologiyalar ilmiy va amaliy pedagogik hayotga chuqur kirib bormoqda. Pedagogik texnologiyalarni ta'limning barcha bosqichida istalgan o'quv

predmetini o'qitishda qo'llash mumkin chunki pedagogik texnologiya bugungi kunning va kelajak hayotning talabi bilan yuzaga keladi .

Hozirgi kunda axborot va pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayonlarida qo'llash jahon amalyotida keng tarqalmoqda

1. Yangi pedagogik texnologiyalarning ahamiyati

Zamonaviy ta'limda yangi pedagogik texnologiyalar o'quvchilarning mustaqil fikrlashini, faolligini va tilni amaliy qo'llash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Masalan:

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali o'quvchilarga multimedia materiallarini taqdim etish, videodarslar, interaktiv topshiriqlar va onlayn platformalar yordamida til o'rganishni yanada samarali qilish mumkin.

Differensial yondashuv orqali har bir o'quvchining til bilish darajasiga mos topshiriqlar beriladi.

Muammoli ta'lim texnologiyasi esa o'quvchini mustaqil izlanishga, til materiallarini chuqur o'zlashtirishga undaydi.

2. Interfaol metodlarning o'rni

Interfaol metodlar — bu dars jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida faol muloqotni ta'minlaydigan usullar majmui bo'lib, ular o'quvchini faollikka chorlaydi va nutqiy ko'nikmalarni shakllantiradi.

Quyidagi metodlar amaliy jihatdan samarali hisoblanadi:

“Aqliy hujum” – o'quvchilar biror mavzuda erkin fikr bildiradilar, bunda so'z boyligi kengayadi.

“Rolga kirish” (Role play) – o'quvchilar turli vaziyatlarda ingliz tilida muloqot qilishadi.

“Blits savol-javob” – tezkor savol-javoblar orqali grammatik va leksik bilimlar mustahkamlanadi.

“Debat” – muayyan masalada ikki tomonning fikrlari bahs-munozara shaklida ilgari suriladi, bu esa og'zaki nutqni rivojlantiradi.

“Juftlikda ishlash” va “Guruhda ishlash” – hamkorlikda ishlash malakasini oshiradi, kommunikativ ko'nikmalarni mustahkamlaydi.

3. Texnologiyalarni dars jarayonida qo'llash samarasi

Yangi texnologiyalar va interfaol metodlarni darsga tatbiq etish quyidagi ijobiy natijalarni beradi:

- o'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan qiziqishi oshadi;
- og'zaki va yozma nutq ko'nikmalari shakllanadi;
- o'quvchilar mustaqil ishlashni o'rganadi;
- darslar samaradorligi yuqori bo'ladi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, ingliz tili fanini o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlardan samarali foydalanish zamonaviy ta'limning ajralmas qismidir. Bu yondashuv o'quvchilarni faollikka, mustaqil fikrlashga, nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltiradi. Shuningdek, o'qituvchidan doimiy izlanish, ijodkorlik va zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirib borishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Hasanov B. "Chet tillarini o'qitishda zamonaviy texnologiyalar", Toshkent, 2022.
- 2.Karimova M. "Interfaol metodlar nazariyasi va amaliyoti", Toshkent, 2021.
- 3.Brown H. D. Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy, 2015.
- 4.Richards J. C., Rodgers T. S. Approaches and Methods in Language Teaching, 2014.
5. Jalolov Jamol. Chet til o'qitish metodikasi. "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent – 2012.
6. Bekmuratova U. B. "Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish" mavzusida referat. Toshkent — 2012 yil
- 7.<https://moluch.ru/archive/138/39058/> (дата обращения: 27.04.2020) Xatamova N. Q., Mirzayeva M.N. "INGLIZ TILI DARSLARIDA
8. QO'LLANILADIGAN INTERFAOL USULLAR" (uslubiy qo'llanma), Navoiy, 2006.

9. Xoldorova M., Fayziyeva N., Rixsittilayeva F. “CHET TILINI O’QITISHDA YORDAMCHI VOSITALARDAN FOYDALANISH”. Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005
10. Hoshimov O’., Yoqubov I. “INGLIZ TILI O’QITISH METODIKASI” (o’quv qo’llanma) Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 200